

**KITOB TUMANIDA EKOTURIZM RIVOJLANISHINING GEOGRAFIK
JIHATLARI**

Anvarjon Abdullayev

O'zbekiston Milliy universiteti

Geografiya (o'rganish obyekti bo'yicha) yo'nalishi magistranti

E-mail: @anvarjonabdullayev7288

tel: +998 97-633-48-89

Nilufar Komilova

O'zbekiston Milliy universiteti

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kafedراسi professori, g.f.d.

E-mail: ni.komilova@nuu.uz

tel: +998 97-718-55-66

Аннотация. В данной статье рассматриваются понятие экотуризма и современные тенденции его становления и развития, географические особенности развития туризма в книжном районе Краснодарского края и горные районы района как туристский ресурс.

Ключевые слова: экотуристический потенциал, экосистема, рекреационные гостевые дома, агротуризм, география услуг, берег реки

Annotation. In this article, the geographical features of the development of tourism in the book District of the Kashkadarya region and the mountainous regions in the district will be studied as a tourist resource.

Key words: ecotouristic potential, guest houses, agrotourism, service geography, riverfront


Annotatsiya. Mazkur maqolada Ekoturizm haqida tushuncha va uning shakllanishi, rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari Qashqadaryo viloyati Kitob tumanida turizm rivojlanishining geografik xususiyatlari va tumandagi tog'li hududlar turistik manba sifatida o'rganiladi.

Kalit so'zlar: ekoturistik salohiyat, ekotizim, rekreatsiya mehmon uylari, agroturizm, xizmat ko'rsatish geografiyasi, daryo sohili

Kirish Ekoturizm (yunoncha, yashil turizm) turizmning yangi va yos tarmog'i bo'lib, antropogen ta'sirga kam uchragan, tabiiy hududlarga tashrif buyurishga qaratilgan barqaror turizmning bir shakli. Ekoturizm va rekreatsion turizm tarmoqlari bir-biriga uzviy bog'liqlikda va aloqadorlikda faoliyat yuritadi.

"Ekoturizm" atamasini ilk bor XX asrning 80-yillarida meksikalik ekolog Ektor Ceballos Laskurain tomonidan rasmiy ravishda ishlatilgan. U dam olish va ekologiya o'rtasidagi uyg'unlik g'oyasini aks ettirdi va katta shuhrat qozondi. Uning ta'riflashicha, ekoturizm tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga asoslangan rekreatsiyaning faol shakli sifatida shakllanishi va faoliyat olib borishi zarur. "Ekologik turizm yoki ekoturizm — tabiatni muhofaza qilishni targ'ib qiluvchi, atrof-muhitga "yumshoq" ta'sir ko'rsatadigan, mahalliy aholining faol ijtimoiy-iqtisodiy ishtirokini ta'minlaydigan tabiat va madaniy

diqqatga sazovor joylarni o'rganish va zavqlanish uchun buzilmagan tabiiy hududlarga nisbatan atrof-muhitga mas'uliyat bilan sayohat qilish va ushbu soha tarmoqlarini kengaytirib daromad olish.



Ekoturizmدا ekotizimlarning yaxlitligi va tabiiy holatiga salbiy ta'sir etmasdan ularni turli maqsadlarda o'rganish, tomosha qilish yoki foydalanish mumkin.

Tabiatga sayohat va bunday sayohatlarning asosiy mazmuni madaniy hordiq chiqarish, salomatlikni tiklash, mahalliy urf-odatlar va madaniyat bilan tanishishdir.

- ekologik va ijtimoiy-madaniy tabiatning salbiy oqibatlarini minimallashtirish, atrof-muhitning ekologik barqarorligini saqlash.
- Tabiat va mahalliy ijtimoiy-madaniy muhitni muhofaza qilishga ko'maklashish.
- Ekologik ta'lim va ma'rifat.
- Mahalliy aholining ishtiroki va ularning turizm faoliyatidan daromad olishi tabiatni muhofaza qilish uchun iqtisodiy rag'bat yaratadi.
- Iqtisodiy samaradorlik va tashrif buyurilgan hududlarning barqaror rivojlanishiga hissa qo'shmoqda.

Ekoturizm jahon iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri bo'lib, ekspertlarning fikricha, dunyoda ekoturizmning o'sishi 20-30 yilni tashkil etadi. 2019-yilda turizm xizmatidan 1 milliard dollargacha daromad olindi. Dunyodagi barcha sayyohlarning taxminan uchdan bir qismi ekoturistlardir.

Qashqadaryo viloyati Kitob tumani ulkan ekoturistik salohiyatga ega hudud. Tumanning shimoliy va sharqiy tog'li qismlarida tarixiy-madaniy va ekoturistik manzillar talaygina.

Tuman shimolida Zarafshon tizmasining janubi-g'arbiy (1700-2600m), sharqi esa Hisor tizmasining g'arbiy tarmog'i bilan o'ralgan. Tuman hududidan oqib o'tuvchi eng yirik Qashqadaryo va janubdagi uning irmog'i hisoblangan Oqsuv daryosi sohili bo'ylab qadimgi aholi manzilgohlari yaqinida qurilgan Tarixiy-me'moriy obidalar va o'ziga xos landshaftga ega ekoturistik manzilgohlar mahalliy va mintaqaviy sayyohlarni o'ziga jalb qilib kelmoqda.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, tuman hududidagi sayyohlik markazlaarining geografik joylashuvi ikki asosiy yo'nalishda: 1.Qashqadaryo daryosi sohili bo'ylab
2.Oqsuv daryosi sohili bo'ylab joylashgan turistik manzilgohlar.(1-jadval)
Qashqadaryo viloyati Kitob tumanidagi ekoturistik manzilgohlar

1-jadval

	Nomi	Tuman markazidan uzoqligi	Turistik ixtisoslashuvi
1	Hazrati Bashir ziyoratgohi	28km	Tarixiy-madaniy,rekreatsion
2	Xo'jaimkoni qishlog'i	12km	Ekoturistik
3	Varganza	19km	agroturistik
4	Kiyev(Kili) g'ori	27km	Ekoturistik, ekstrimal turizm
5	Hazrati Sulton ziyoratgohi	76km	Ekoturistik, ekstrimal turizm
6	Qaynar	16km	rekreatsion
7	Kitob geologiya milliy bog'i	39km	ekoturistik

Mamba; Internet materiallari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

Qashqadaryo bo'yidagi Hazrati Bashir ziyoratgohi _ Kitob shahridan 28 km uzoqlikda. Ushbu qadamjo XIV asrda qurilgan, u yerda H.Bashir qabri va uning hassasidan unib chiqqan 5 metr balandlikdagi archa daraxti va shifobaxsh buloq mavjud. Eng e'tiborlisi, daryo bo'yidagi qalin chinorzorlar va uning yaqinidagi mehmon uylari yozning jazirama kunlarida dam oluvchilar bilan to'ladi. Ziyoratgoh atrofiada yashovchi mahalliy aholining qo'shimcha daromad manbayi yozgi dam oluvchilar hisobiga tushadi. Iyun-avgust oylarida xizmat ko'rsatish geografiyasi kengayib, mavsumiy restoranlar va sport o'yingohlari faoliyat yuritadi.



2-rasm H.Bashir Ziyoratgohi (Chapda) va ushbu yerdagi Tuman hududidagi ziyoratgohlar kartasi

Bashir qishlog'idan 7 km janubda mashhur Varganza qishlog'i joylashgan. Varganza – birinchi agroturizm qishlog'idir. Bu yerda O'zbekistonda birinchi marta "Anor" xalqaro agroturizm festivali o'tkazildi. Festivalda 23 mamlakat qatnashdi, qishloq esa agroturizm qishlog'i maqomiga ega bo'ldi. Varganza yurimizda anor yetishtirish bo'yicha Quva (Farg'ona) va Dashnobod (Surxondaryo)dan keyin 3-yirik markaz hisoblanadi.



3-ram Varganza qishlog'ida o'tkazilgan "anor festivali" dan lavhalar

Ikkinchi yo'nalish ya'ni Oqsuv daryosi sohili bo'ylab bir nechta shu kabi turistik manzillar mavjud. Navbatdagi manzil viqorli va go'zal tog'lar orasidagi Imkana qishlog'iga tuman markazidan 12 kilometr dan ziyodroq yo'l bosib boriladi. Qishloq dengiz sathidan 900 metr balandda joylashgan bo'lib, odamlar orasida "Xo'jaimkana", "Xo'ja ilmkon" nomlari bilan mashhur. Qishloqdagi noodatiy sayyohlik markazi 1200 yoshga kirgan chinor bo'lib, u yurtimizdagi eng keksa daraxt hisoblanadi. Uning kovagida 70-80 kishi tik tursa, 25-30 kishi chordona qurib o'tirsa bo'ladi. Daraxt tanasidagi tabiiy yoriqqa eshik o'rnatilgan. Asrlar o'tishi bilan tana markazida keng o'yiqlik hosil bo'lgan. O'yiqlik ichidagi "xona" devori yong'indan qorayganini ko'rish mumkin. Chinorning aylanasi 18 kishi qulochiga teng yoxud 27 metrga yaqin. Daraxt bag'rida hosil bo'lgan "xona" esa uzunlik bo'ylab 5,8 metr, eniga 4,2 metr. Jumaladan qishloq hududida 12 ta qadimiy suv chiqarish inshooti "korizlar" mavjud. Hozir ham aholiga chashma suvini yetkazib berishga xizmat qilyapti. Ushbu buloqlar suvi juda musaffo, yoqimli va muzdayligi bilan e'tiborni jalb etadi. Hayratlanarli jihati, qishda suvning harorati mo'tadillashadi. Toshlar ichidan chiqib kelayotgan buloq suvi yaqin atrofdagi uchta qishloqni ichimlik suv bilan ta'minlaydi.

Kiyev g'ori (Kili g'ori) — Kitob tumani shimoli-g'arbida Chaqilkalon tog'laridagi g'or. 1972-yilda kiyevlik g'orshunoslar tomonidan topilgan va shunday nom berilgan.. G'orning kirish qismi dengiz sathidan 2398 m balandlikda. Qirg'ov yassi balandligining g'arbiy shemila, voronkasimon shakldagi Kattako'l botig'i ostidan boshlanadi va yer qa'riga 940 m gacha tushgan. G'or ichida pastga tomon bir nechta tik va nishabli yo'lakchalar almashinib boradi. Uning barcha qismidagi devorlaridan suv tomchilari oqib turadi. G'orning eng tubida chuqurligi 10 m, diametri 1,5 m li ko'l mavjud. O'lchamlari: tik tushgan joylari uzunligi 3 m dan 90 m gacha, nishabli qismlarining uzunligi 30-250 m, eni 1— 1,5 m.

Xulosa Tumanda mavjud ekoturistik salohiyatni hisobga olgan holda, turistik ob'yektlarda xizmat ko'rsatish geografiyasini rivojlantirish va kengaytirish orqali, mahalliy va mintaqaviy turistlar salmoqlig'ini oshirish va hududiy ishlab chiqarish tarmoqlarini takomillashtirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- [1] Aliyeva M.T. Turizm asoslari T.:O'zbekiston faylasuflari nashriyoti 2014
- [2] Gulmetov F.E., Allabergenov A.A. Turizm geografiyasi", T.: "Talqin" 2004
- [3] Mamatqulov X.M., Tuxliyev I.S., Bektemirov A.B. Xalqaro turizm-darslik, Samarqand: "Afrosiyob uchquni" 2008

- [4] Soliyev A., Mahamadaliyev R., Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya asoslari, T.:2005
[5] Soliyev A.S., Usmonov M. Turizm geografiyasi.-Samarqand, 2005